

Internetdan Foydalanishning Konstitutsiyaviy Huquqiy Asoslari: Internetdan Foydalanish Huquqi Tushunchasi

Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o‘g‘li¹

Annotatsiya: Ushbu maqola internetdan foydalanish huquqining konstitutsiyaviy huquqiy asoslarining huquqiy tahliliga bag‘ishlangan. Zamonaviy dunyoda Internetning tutgan o‘rni va Internetga kirish erkinligi turli davlatlarda ta’minlanish darajasi o‘zaro taqqoslanib tahlil qilingan.

Internet bilan bo‘g‘liq munosabatlarni tartibga solishni zamonning o‘zi talab qilayotgani va keyingi aksariyat ijtimoiy munosabatlar aynan Internetda bo‘lishi asoslab tushuntirib berilgan.

Bundan tashqari Internet erkinligi nima ekanligi va Internetga erkin kirish huquqi olimlar fikri asosida tahlil qilinib tushuntirilgan. Ya’ni har kimning Internet jahon axborot tarmog‘iga kirishi va undan cheklovgarsiz foydalanishi uchun davlat tomonidan qanday shart-sharoitlar yaratilishi asoslantirib o‘tilgan.

Normativ huquqiy hujjatlar va olimlar fikrini tahlil qilib, “Internetdan foydalanish huquqi” tushunchasiga nisbatan mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi.

Internetning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Bu imkoniyatlarni hozirda boshqa hech qanday kompyuter tarmog‘i, radiotelefon yoki pochta aloqasi orqali amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, Internet yangi, global axborot jamiyatining timsoli bo‘lib, o‘zaro aloqa maydoniga aylandi. Globallik - Internetning ko‘plab imkoniyatlarini ta’minlaydigan asosiy xususiyatdir. Mamlakatlar va qit’alarni bog‘lovchi vositaga aylangan Internet, boshqa axborot uzatish vositalari va kompyuter tarmoqlari orasida o‘xshashi bo‘lmagan global o‘zaro munosabatlar muhitiga aylandi. Internetning funksionalligi kengayib, konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Internetning bu boradagi salohiyati biz tasavvur qila oladigan darajadan ancha keng bo‘lib, bu ko‘p jihatdan uning uzuksiz xalqaro miqyosda rivojlanishi va taklif etilayotgan imkoniyatlarning ko‘pligi bilan bog‘liq.

Internet endi oddiy axborot magistrali bo‘lmay qoldi. U zamonaviy axborot jamiyatidagi ko‘plab imkoniyatlardan foydalanish uchun vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bunday imkoniyatlar soni doimiy ravishda ortib bormoqda. Imkoniyatlarning aksariyati bevosita real dunyoda ham, virtual makonda ham inson huquqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu dissertatsiyaning keyingi qismida ko‘rib chiqiladi.

Tabiiy ravishda paydo bo‘lgan va siyosiy sabablar tufayli maxsus yaratilgan “raqamli to‘siqlar” mavjudligiga qaramay, Internet o‘zining sayyoraviy ahamiyatini yo‘qotmaydi. Hokimiyat cheklovlar kiritishga intilayotgan axborot oqimlari baribir tarqalishning boshqa, aylanma yo‘llarini topadi. Bu esa global Internet tarmog‘ining to‘laqonli va bitta davlat tomonidan nazorat qilinadigan analogini joriy etish imkonsizligini anglatadi.

Masalan “to‘rsimon topologiyali tarmoqlarni yaratish texnologiyasi”² yordamida foydalanuvchilar davlat yoki kompyuter tarmoqlarini yaratish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar ko‘magisiz o‘z kompyuter tarmog‘ini tashkil eta oladilar. Nazariy jihatdan, Wi-Fi tarmoqlarini birlashtirish orqali global umumiy kirish maydonini yaratish ham mumkin. Bu esa uyali aloqa

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi

² <http://samag.ru/archive/article/1731>



tarmog‘iga o‘xshash tizimni hosil qilishga imkon beradi. Shuningdek, asosiy aloqa liniyasini qurish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan joylarda ham Internetga ulanishni ta’minlash mumkin. Hozirda bunday model asosida Internetdan foydalanish tarmoqlarini amalga oshirishning amaliy misollari mavjud. Misol uchun, Ispaniyada 2500 aholiga ega bo‘lgan Gurb shahrida “Guifi.net” loyihasi paydo bo‘ldi. Bu shahar uzoq vaqt davomida rivojlangan optik tolali aloqa tarmog‘iga ega bo‘lmasligi sababli, global tarmoqqa sifatli ulanish imkonsiz edi³. Bugungi kunda bu loyiha dunyodagi shu turdagi eng yirik tarmoqqa aylandi. U paydo bo‘lgan hududdan tashqariga chiqib, Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlariga ham tarqalmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston hududida favqulodda vaziyatlar (masalan koronavirus pandemiyasi) yuzaga kelganda Internetga muqobil bo‘la oladigan axborot uzatish infratuzilmasini yaratish zarurligini inkor etib bo‘lmaydi. Boshqa har qanday texnologiya kabi Internet mutlaqo ishonchli ixtiro emas, u bilan bog‘liq kamchiliklar ham vujudga kelishi mumkin. Bu kamchiliklar texnogen muammolar, maqsadli zarar yetkazish yoki tabiiy ofatlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Zararli dasturiy ta’mnotin tarqatish orqali davlat manfaatlariga zarar yetkazilgan holatlar ham mavjud. Masalan, Stuxnet nomli zararli dastur Eronning yadro dasturiga jiddiy zarar yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Bu voqeа sanoat kiberqurolini qo‘llashning birinchi holati sifatida baholangan⁴. Internetning o‘zi, ayniqsa, u bilan bog‘liq ko‘plab muhandislik-texnik yechimlar, uskunalar va dasturiy ta’mnotin Amerika Qo‘shma Shtatlarining texnologik suverenitetiga tegishli. Shu sababli, davatlarning o‘z infratuzilmasini yaratish inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta’minlaydigan vosita sifatida ham qaralishi mumkin.

Internet o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan ne’matga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, uni inson huquqlari obyekti sifatida ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi.

Internetga ulanish va unda faoliyat (ish) olib borish imkoniyati - ajralmas birlikni tashkil etadi. Shuningdek, Internetdan foydalanishni ta’minlaydigan shart-sharoitlar (omillar) ham mavjud. Bu omillarni shartli ravishda texnik va notexnik turlarga ajratish mumkin. Bu yerda Internetdan foydalanish huquqini amalga oshirishni texnik va notexnik shartlarini aniqlashtirish vazifasi paydo bo‘ladi. Chunki "... har qanday huquqlarni amalga oshirish uchun ular ma’lum shaxsga tegishli bo‘lishi, uning ixtiyorida bo‘lishi va ulardan foydalanishning haqiqiy imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak"⁵. Ushbu shartlarni (omillarni) aniqlash mazkur huquqning yuridik mazmunini ham belgilashga yordam beradi.

Internetdan foydalanish quyidagi **texnik shartlar (omillar)** bajarilganda ta’milanadi:

- foydalanuvchida Internetda ishslash imkonini beruvchi kompyuter tarmog‘i uskunalarining mavjudligi;
- foydalanuvchi uskunasiga Internetda manzil berish uchun texnik imkoniyatlarga ega bo‘lgan hamda foydalanuvchi uskunasidan kelgan so‘rovlarga muvofiq axborotni qabul qilish va uzatishni amalga oshiruvchi provayder - aloqa operatori infratuzilmasining mavjudligi;
- Internetda uskunalarga muvaffaqiyatli manzil berish;
- ma’lumotlarni qabul qilish va uzatishni ongli ravishda blokirovka qiladigan uskunalar va dasturiy ta’mnotin tomonidan axborot qabul qilish va uzatish uchun cheklavlarning yo‘qligi;
- Internet tarmog‘iga yetarli darajada sifatli ulanish mavjudligi⁶.

³Forget comcast. Here’s the diy approach to Internet access // URL: <https://www.wired.com/2016/07/forget-comcast-heres-the-diy-approach-to-Internet-access/#.jr4wdjp1e>

⁴Марков А.С., Фадин, А.А. Организационно-технические проблемы защиты от целевых вредоносных программ типа Stuxnet // Вопросы кибербезопасности. 2013. № 1(1). С. 28-36.

⁵Воеводин Л.Д. Указ. соч. С. 158.

⁶Sohaviy adabiyotlarda tarmoq aloqasi sifatining turli tavsiflari ajratiladi: unumdoorlik, ishonchlik va xavfsizlik, kengayish va masshtablash, shaffoflik, turli xil trafikni qo‘llab-quvvatlash, boshqarish, muvofiqlik. Batafsil qarang: Urbanovich P. P. Kompyuternie seti: uchebnoye posobiye. Moskva; Vologda: Infra-Injeneriya, 2022. C.50



Internetdan foydalanishning texnik tarkibiy qismi ontologik jihatdan texnik bo‘lmagan omillar bilan uzviy bog‘liq. **Texnik bo‘lmagan omillar** Internetdan foydalanish huquqining amalga oshirilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarning biri *subyektiv*, ikkinchisi esa *obyektiv* xususiyatga ega.

Subyektiv omil foydalanuvchisi bilan bog‘liq. Internetning muayyan shaxs hayotidagi o‘rnining shaxsiy, aqliy, madaniy, iqtisodiy, jismoniy va boshqa imkoniyatlari hamda ehtiyojlari asosida belgilanadi. Foydalanuvchining texnik savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi. Afsuski, har kim ham axborot texnologiyalarini mustaqil o‘zlashtira olmaydi. Bu holat katta yoshli avlod vakillarida ko‘proq kuzatiladi. Subyektiv omil bilan bog‘liq turli masalalar “raqamli tengsizlik”ning murakkab muammosini (Internetdan foydalanishda teng imkoniyatlarning yo‘qligini) tashkil etadi. “Internetga ulangan bo‘lsa-da, tarmoqda samarali ishslash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va resurslarga ega bo‘lmaslik juda yomon. Undan ko‘ra Internetdan butunlay uzilgan bo‘lish ma’qul”⁷. Bizning fikrimizcha, turli huquqburzaliklar va firibgarliklar keng tarqalgan bir sharoitda bu nuqtayi nazar to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Bu kabi holatlar ko‘p jihatdan jabrlanuvchilarning texnik kompetensiyalari yetarli darajada emasligi tufayli sodir bo‘lmoqda.

Internet paydo bo‘lishining dastlabki davrida ilm-fan ahliga tegishli boylik edi. Ilk axborot magistrallari ilmiy-texnik taraqqiyotning oldingi saflarida turgan AQSH universitetlari o‘rtasida qurilgan. Shunga muvofiq, undan foydalanish uning ishslash tamoyillari haqida jiddiy bilimlarni va maxsus uskunalar bilan ishslash ko‘nikmalarini talab etardi. Dastlabki kompyuter tarmoqlarining imkoniyatlari va qo‘llanilish doirasi ancha cheklangan edi.

Bugungi kunda vaziyat tubdan o‘zgargan. Zamonaviy kompyuterdan foydalanish uchun hatto o‘qishni bilish ham shart emas. Bolalar juda yoshligidanoq planshetlarda kompyuter o‘yinlarini o‘ynashni boshlaydilar, ko‘pincha dasturlarni tezda o‘zlashtirib, ular haqida ota-onalaridan ko‘ra yaxshiroq tushunchaga ega bo‘la boshlaydilar.

Internetning imkoniyatlari bo‘yicha hech qanday tasnif yoki undan foydalanish usullarining ro‘yxati mavjud emas. Internetdan foydalanishning ehtimoliy ssenariylari shaxsning o‘z ehtiyojlari va Internet haqidagi bilimlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Obyektiv omil davlatning Internetdan foydalanish, Internetning potensial imkoniyatlari, ularni amalga oshirishni ta’minalash, shuningdek Internet orqali turli xizmatlar ko‘rsatuvchi kompaniyalar faoliyatiga nisbatan shakllanayotgan siyosatidan iborat. Davlat va biznes vakillari Internetdan foydalanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan manfaatdor subyektlar sifatida “multisteykxolderlar”⁸ hisoblanadi. Internet transchegaraviy ekanligini tan olish lozim. Biroq Internetning u yoki bu davlatda istiqomat qiluvchi insonlar hayotiga singib borish darajasi shu davlat hukumati tomonidan belgilanadi va bu masalada yagona o‘rnatilgan amaliyot mavjud emas. Internetga ulanish infratuzilmasini rivojlantirishga sarmoya kirituvchi, shuningdek, foydalanuvchilarni ushbu tarmoqdan foydalanishga undovchi xizmatlarni taklif etuvchi biznes ham shunga o‘xhash ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, Xitoyda Internetga nisbatan qabul qilingan cheklar mavjud. U yerda “Oltin qalqon” yoki “Buyuk Xitoy fayrvoli” nomi bilan tanilgan davlat Internet-senzurasi tizimi mavjud bo‘lib, “qora ro‘yxat”dagi so‘zlar aniqlansa, tarmoq resurslaridan foydalanishni cheklaydi. Bundan tashqari, u yerda Google, Facebook, YouTube, Instagram, Twitter kabi xizmatlar, barcha tillardagi “Vikipediya” sayti, Amnesty International xalqaro inson huquqlari tashkilotining veb-sayti hamda boshqa resurslardan foydalanish taqiqlangan⁹. Umuman olganda, Xitoyda Internet munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish ancha uzoq rivojlanish tarixiga ega. Adabiyotlarda qayd etilishicha, bu jarayon 1993-yil 23-yanvarda Davlat Kengashi tomonidan “Xalqaro kompyuter axborot tarmog‘ini boshqarish to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom”ning qabul qilinishi bilan boshlangan. Keyinchalik, 1997-yil 8-

⁷Иванов А.Ю. Контроль монополизации в условиях цифровой экономики: первая часть дискуссии о пятом антимонопольном пакете // Закон. 2018. № 2. // СПС «КонсультантПлюс».

⁸Правовое пространство: границы и динамика: монография / Ю.А. Тихомиров, А.А. Головина, И.В. Плюгина [и др.]; отв. ред. Ю.А. Тихомиров. Москва: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации: ИНФРА-М, 2021. С.61

⁹<http://tass.ru/info/2530474>



dekabrda ushbu nizomni aniqlashtiruvchi “Vaqtinchalik nizomni amalga oshirish bo‘yicha batafsил chora-tadbirlar” qabul qilingan¹⁰. Ushbu Vaqtinchalik nizom matnini ko‘zdan kechirsak, unda turli xil cheklovlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, xususiy shaxslarga Pochta va telekommunikatsiyalar vazirligi taqdim etgan kanallarni chetlab o‘tib, xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlariga ularishni taqiqlash (6-modda) hamda foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tish talabi (10-modda) shular jumlasidandir¹¹. Xitoya Internetdan foydalanishni huquqiy tartibga solishning uzoq rivojlanish davrini inobatga oladigan bo‘lsak, “boshqa yurisdiksiyalarga nisbatan, Xitoya axborot xavfsizligini ta’minalash va axborotning kommunikativ jihatini nazorat qilishda misli ko‘rilmagan yondashuv qabul qilingani” haqidagi fikrga qo‘silmashlikning iloji yo‘q¹².

Kubadagi obyektiv omilning rivojlanishi nihoyatda o‘zgaruvchan. Ilgari davlat tashabbuslari global tarmoqqa faqat olimlar, o‘qituvchilar va shifokorlargina kira oladigan uy xo‘jaliklarida Internetni rivojlantirishga qaratilgan edi. Endi esa, Internetga mobil ularish imkoniyati paydo bo‘lishi bilan vaziyat yaxshilana boshladi¹³. 2021-yildagi norozilik namoyishlari mahalliy hokimiyatning e’tiborini tortdi va ular Internet tarmog‘iga kirishni nazorat qilishga qaratilgan bir qator choralar qabul qilishga majbur bo‘ldi¹⁴. Masalan, 2021-yil 17-avgustdagи “Aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va radioelektron spektrdan foydalanish to‘g‘risida”gi 35-sonli Qonun-farmoning 69-moddasiga ko‘ra, operatorlar o‘z tarmoqlaridan foydalanish bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan texnik choralar ko‘rislari shart. Bu choralarga xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish ham kiradi. (agar tarmoqlardan boshqa operatorlarga yoki mamlakatlarga ta’sir o‘tkazish, shuningdek, yolg‘on ma’lumot tarqatish, insonni haqoratlash yoki unga zarar yetkazish maqsadida foydalanilayotgan bo‘lsa)¹⁵. Ushbu turdagи chora-tadbirlar foydalanuvchilarning xatti-harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Eronda Internetning rivojlanish tarixi o‘ziga xos tarzda kechgan. Konservativmi bilan tanilgan bu mamlakatda Internet dastlab hech qanday cheklovlar sиз, stixiyali ravishda rivojlandi. Biroq, keyinchalik unga kirish imkoniyati qat’iy cheklandi. Ayniqsa, 2009-yildagi ommaviy norozilik namoyishlaridan so‘ng Internet ustidan jiddiy nazorat o‘rnatildi. Shunday bo‘lsa-da, so‘nggi paytlarda bu mamlakatda ham Internetdan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. 2014-yil avgust oyida Eron uyali aloqa operatorlari mobil Internet xizmatini ko‘rsatish uchun litsenziyalar oldi¹⁶. Ammo keyinchalik umumiyl kirish cheklovlar yana takrorlandi¹⁷. 2021-yilda Eronda “Foydalanuvchilarni himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini qabul qilishga urinish bo‘ldi. Bu loyiha dastlab Parlament Rayosati tomonidan rad etildi¹⁸ va inson huquqlarini cheklovchi sifatida tanqidga uchradi.

¹⁰Jack Linchuan Qiu. Virtual censorship in China: keeping the gate between the cyberspaces // International Journal of Communications Law and Policy. Winter 1999/2000. Issue 4. URL:
https://ciaotest.cc.columbia.edu/olj/ijclp/ijclp_4/ijclp_4a.pdf

¹¹Interim Regulations on the Management of International networking of Computer Information// URL:
<https://wipolex.wipo.int/en/text/182413>

¹²Азизов Р.Ф. Правовые аспекты функционирования сети Интернет в китайской Народной Республике// Пенитенциарная наука. 2015. №1 (29). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-aspekty-funktzionirovaniya-seti-Internet-v-kitayskoy-narodnoy-respublike>

¹³ Как мобильный интернет за год изменил жизнь Кубы // URL: <https://rg.ru/2019/12/06/kak-mobilnyj-internet-za-god-izmenil-zhizn-kuby.html>

¹⁴Cuba passes Internet censorship and cybersecurity law URL: <https://therecord.media/cuba-passes-Internet-censorship-and-cybersecurity-law/>

¹⁵Decreto-ley no. 35 de las telecomunicaciones, las tecnologías de la información y la comunicación y el uso del espectro radioeléctrico. Gaceta Oficial No. 92 Ordinaria de 17 de agosto de 2021 // URL:
<https://www.mined.gob.cu/document/gaceta-oficial-no-92-ordinaria-de-17-de-agosto-de-2021/>

¹⁶Tehran Unfetters Cellphones, and the Pictures Start Flowing // URL:

<https://www.nytimes.com/2014/09/03/world/asia/iran-speeds-up-cellphone-connections.html>

¹⁷Суверенный "конец света": как Иран жил неделю без интернета // URL: <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/7189991>

¹⁸Letter to Iran, Regarding the Regulatory System for Cyberspace Services Bill. URL:

<https://www.eff.org/ru/deeplinks/2022/03/letter-iran-regarding-regulatory-system-cyberspace-services-bill>



Biroq, ushbu hujjatning ayrim qismlari “Kibermakondagi Oliy Kengashni tartibga soluvchi Oliy komissiyaning vakolatlari to‘g‘risida”gi qaror matniga kiritildi¹⁹.

Shuni ta’kidlash joizki, Internetga kirish va undan foydalanish imkoniyatini cheklash faqat davlat tomonidan amalga oshirilmasligi mumkin. Ilgari uyali aloqa operatorlari yirik matnli xabarlar uzatish va ovozli aloqa xizmatlarining ishini cheklashga, hatto butunlay taqiqlashga urinishgan. Buning sababi, Internet-trafik tariflari bo‘yicha ovoz uzatish ko‘pincha oddiy telefon aloqasiga qaraganda ancha arzonroq bo‘lgan. Bu, ayniqsa, shaharlararo va xalqaro aloqalarga taalluqli edi. Xususan, cheklashga urinish 2010-yilda mashhur Skype Internet-telefon xizmati trafigini bloklash tashabbusini ko‘targan “Firma Tel” telekommunikatsiya kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan edi.

Internetga eng muhim ta’sir etuvchi vosita sifatida davlat hokimiyati ham, yirik biznes ham muntazam ravishda daxl qilishga urinmoqda.

Internetdan foydalanishni Internet global kompyuter tarmog‘iga ularish va unda ishlash imkoniyati sifatida tushunish mumkin. Internetda ishlash: Internetning axborot resurslaridan foydalanish, axborotni mustaqil va faol tarqatish, axborot resurslarini yaratish va boshqalarga ulardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish, shuningdek, boshqa foydalanuvchilar bilan o‘zaro muloqot qilish hisoblanadi. Internetga kirish esa, texnik va notexnik omillarga bog‘liq.

Internetdan foydalanish huquqi aksariyat huquqlarning amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Ya’ni o‘zining raqamli aksi bo‘lgan har qanday huquqni Internetdan foydalanish huquqi yordamida amalga oshirish mumkin.

Umumiy xulosalar:

1. Internet o‘z-o‘zidan betaraf, biroq uning qo‘llanilishi va ta’siri real ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bog‘liq bo‘ladi.
 2. Internetdan foydalanish deganda ushbu kompyuter tarmog‘iga ularish va unda ishlash imkoniyati tushuniladi.
 3. Texnologik taraqqiyot natijasida Internet tarmog‘i oddiy axborot almashish vositasidan ko‘plab huquqiy ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi alohida huquqiy maydonga aylandi;
 4. Internetdan foydalanish huquqining ijtimoiy ahamiyati ikki jihatni o‘z ichiga oladi:
 - jahon axborot jamiyatida ishtirok etish;
 - inson huquqlarining to‘liq ro‘yobga chiqishini ta’minalash.
1. Internetdan foydalanish huquqi boshqa huquq va erkinliklarni amalga oshirish vositasiga aylandi;
 2. Internetdan foydalanish huquqi o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab bo‘lib, Internetdan foydalanishning texnik va texnik bo‘lmagan omillariga bog‘liq.

Texnik omil shaxsning quydagi huquqiy imkoniyatlarini belgilaydi:

- Internetda ishlash imkonini beruvchi jihozlarga ega bo‘lish;
- foydalanuvchi qurilmasiga IP-manzil taqdim etish uchun texnik imkoniyatlarga ega bo‘lgan hamda foydalanuvchi qurilmasidan kelgan so‘rovlargacha muvofiq ma’lumotlarni qabul qilish va uzatishni amalga oshiradigan provayder - aloqa operatori infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish;
- global kompyuter tarmog‘ida manzil olish;
- shaxsiy ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashdan himoyalanish;
- tarmoq bilan sifatli aloqa o‘rnatish;

¹⁹<https://way2pay.ir/285280/>



- qabul qilish va uzatish uchun noqonuniy cheklovlarini bartaraf etishni hamda cheklovlar faktlari va asoslari haqida xabardor qilishni talab etish.

Internetdan foydalanishning texnik bo‘lmagan omillari ikkiga bo‘linadi: obyektiv va subyektiv.

Internetdan foydalanishning texnik bo‘lmagan subyektiv omili foydalanuvchilarga qonunga zid bo‘lmagan har qanday maqsadda Internet tarmog‘idan foydalanish huquqini belgilab beradi. Ya’ni, har bir foydalanuvchi o‘z extiyoji va salohiyatidan kelib chiqib Internetdan foydalanishi kafolatlanadi.

Internetdan foydalanishning texnik bo‘lmagan obyektiv omili Internetdan foydalanish huquqini ta’minalash bo‘yicha davlatning ijobiylari va salbiy majburiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Davlatning salbiy majburiyatlarini qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Internetdan foydalanish huquqini amalga oshirishga aralashmaslik, kompyuter tarmog‘ining milliy qismini qolgan Internet bilan aloqadorligini buzishdan tiyilish;
- qonunchilikda belgilangan tartib va asoslardan tashqarida Internet tarmog‘idagi manbalarni to‘sishga yo‘l qo‘ylamasligi.
- Davlatning eng muhim ijobiylari majburiyatlariga quyidagilarni kiritish lozim:
- Internetdan foydalanishning texnik va texnik bo‘lmagan omillari tufayli yuzaga kelgan raqamli makondagi turli xil raqamli tengsizlik shakllarini bartaraf etish;
- huquqning mohiyati va tabiatni boshqacha talab qilmasa, Internet tarmog‘ida haqiqiy dunyodagi kabi huquqlarni ta’minalash va himoya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://samag.ru/archive/article/1731>
2. Forget comcast. Here’s the diy approach to Internet access // URL:
<https://www.wired.com/2016/07/forget-comcast-heres-the-diy-approach-to-Internet-access/#.jr4wdjp1e>
3. Марков А.С., Фадин, А.А. Организационно-технические проблемы защиты от целевых вредоносных программ типа Stuxnet // Вопросы кибербезопасности. 2013. № 1(1). С. 28-36.
4. Воеводин Л.Д. Указ. соч. С. 158.
5. Иванов А.Ю. Контроль монополизации в условиях цифровой экономики: первая часть дискуссии о пятом антимонопольном пакете // Закон. 2018. № 2. // СПС «КонсультантПлюс».
6. Правовое пространство: границы и динамика: монография / Ю.А. Тихомиров, А.А. Головина, И.В. Плюгина [и др.]; отв. ред. Ю.А. Тихомиров. Москва: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации: ИНФРА-М, 2021. С.61
7. <http://tass.ru/info/2530474>
8. Jack Linchuan Qiu. Virtual censorship in China: keeping the gate between the cyberspaces // International Journal of Communications Law and Policy. Winter 1999/2000. Issue 4. URL: https://ciaotest.cc.columbia.edu/olj/ijclp/ijclp_4/ijclp_4a.pdf
9. Interim Regulations on the Management of International networking of Computer Information// URL: <https://wipolex.wipo.int/en/text/182413>
10. Азизов Р.Ф. Правовые аспекты функционирования сети Интернет в китайской Народной Республике// Пенитенциарная наука. 2015. №1 (29). URL:
<https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-aspekte-funktzionirovaniya-seti-Internet-v-kitayskoy-narodnoy-respublike>



11. Как мобильный интернет за год изменил жизнь Кубы // URL: <https://rg.ru/2019/12/06/kak-mobilnyj-Internet-za-god-izmenil-zhizn-kuby.html>
12. Cuba passes Internet censorship and cybersecurity law URL: <https://therecord.media/cuba-passes-Internet-censorship-and-cybersecurity-law/>
13. Decreto-ley no. 35 de las telecomunicaciones, las tecnologías de la información y la comunicación y el uso del espectro radioeléctrico. Gaceta Oficial No. 92 Ordinaria de 17 de agosto de 2021 // URL: <https://www.mined.gob.cu/document/gaceta-oficial-no-92-ordinaria-de-17-de-agosto-de-2021/>
14. Tehran Unfetters Cellphones, and the Pictures Start Flowing // URL: <https://www.nytimes.com/2014/09/03/world/asia/iran-speeds-up-cellphone-connections.html>
15. Суверенный "конец света": как Иран жил неделю без интернета // URL: <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/7189991>
16. Letter to Iran, Regarding the Regulatory System for Cyberspace Services Bill. URL: <https://www.eff.org/ru/deeplinks/2022/03/letter-iran-regarding-regulatory-system-cyberspace-services-bill>
17. <https://way2pay.ir/285280/>

